

MILLIYATCHILIK NAZARIYALARI: GELLNER, HOBBSAWM VA SMITH QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI

Azimov Habibulloxon Yakubovich

TDSHU “Xalqaro munosabatlar” kafedrası katta o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, PhD

Sobirova Moxichexra Abduxalil qizi

TDSHU “Siyosatshunoslik” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola milliyatchilik nazariyalarini Gellner, Hobsbawm va Smithning fikrlari asosida qiyosiy tahlil qilishni maqsad qiladi. Ernest Gellner milliyatchilikni zamonaviy sanoat jamiyatining zaruriyati sifatida ko‘rib, millat va millatchilikni sun‘iy ijtimoiy konstruksiyalar deb ta’riflaydi. Erik Hobsbawm esa millatchilikni siyosiy konstruksiya sifatida talqin qilib, uni tarixiy va siyosiy jarayonlarning natijasi sifatida baholaydi. Anthony D. Smith esa millatlarni tarixiy va madaniy uzluksizlik bilan izohlab, millatchilikni qadimiy etnik guruhlar asosida shakllangan hodisa sifatida ko‘radi. Ushbu maqola Gellner va Hobsbawmning modernistik yondashuvlarini taqqoslaydi, shuningdek, Smithning primordialist va perennialist yondashuvlari bilan taqqoslab, milliyatchilikning turli ijtimoiy va siyosiy kontekstlarda qanday shakllanishini aniqlaydi. Tahlil natijasida, ushbu nazariyalar bir-birini to‘ldiruvchi tarzda milliyatchilikni zamonaviy jamiyatlar va tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Maqola milliyatchilikni nafaqat siyosiy, balki madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Milliyatchilik nazariyalari, modern sanoat jamiyati, tarixiy va madaniy identitet, ijtimoiy konstruksiya, milliy davlatchilik shakllanishi.

ABSTRACT

This article aims to conduct a comparative analysis of nationalism theories based on the views of Ernest Gellner, Eric Hobsbawm, and Anthony D. Smith. Gellner interprets nationalism as a necessity of modern industrial society, describing nations and nationalism as artificial social constructs. Eric Hobsbawm on the other hand, interprets nationalism as a political construct and evaluates it as a result of historical and political processes. Meanwhile, Smith explains nations through historical and cultural continuity and views nationalism as a phenomenon rooted in ancient ethnic communities. The study compares the modernist approaches of Gellner and Hobsbawm, and contrasts them with Smith’s primordialist and perennialist perspectives, identifying how nationalism emerges across various social and political contexts. The analysis concludes that these theories complement one another in

explaining nationalism in relation to modern societies and historical processes. This research is intended to offer a comprehensive examination of nationalism as not only a political but also a cultural and social phenomenon.

Keywords. *Theories of nationalism, modern industrial society, historical and cultural identity, social construct, formation of nation-state.*

KIRISH

Milliyatchilik (natsionalizm) zamonaviy siyosiy tarixda muhim mafkuraviy oqimlardan biri bo'lib, u milliy davlat (nation-state) tushunchasining shakllanishi, shaxsiy erkinlik va siyosiy suverenitet g'oyalarining kuchayishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Xususan, XVIII asr oxirida yuz bergan "Fransuz inqilobi" milliy suverenitet g'oyasini ilgari surib, millatni siyosiy hokimiyat manbai sifatida e'tirof etishning yo'lini ochdi. Milliyatchilik dastlab imperiyalar zulmiga qarshi siyosiy vosita sifatida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik murakkab nazariy asoslarga ega bo'lgan siyosiy mafkuraga aylandi.

Bugungi kunda milliyatchilik tushunchasi bo'yicha bir nechta yondashuvlar mavjud. Ushbu maqolada milliyatchilikka doir uch muhim nazariy yondashuv — Ernest Gellnerning modernistik, Erik Hobsbawmning marksistik-konstruktivistik va Anthony D. Smithning etno-simvolik yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi. Mazkur nazariyalar asosida milliyatchilikning kelib chiqishi, rivojlanishi va bugungi siyosiy jarayonlardagi o'rni yoritib beriladi.

Ernest Gellner o'zining mashhur "Nations and Nationalism" (1983) asarida milliyatchilikni modern sanoat jamiyatining mahsuli sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, an'anaviy jamiyatlarda siyosiy hokimiyat va madaniy birlik o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud bo'lmagan. Til, madaniyat va siyosiy hokimiyat bir-biridan alohida mavjud bo'lgan, shohning xalq bilan madaniy mushtarakligi zarur deb qaralmagan.

Biroq sanoatlashuv va iqtisodiy murakkabliklar ortishi bilan yangi turdagi ijtimoiy tashkilot zarur bo'lib qoldi. Endilikda jamiyatda samarali muloqot, standart til va yagona ta'lim tizimi muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Gellnerning fikricha, milliyatchilik ana shu ehtiyojlardan kelib chiqqan. U milliy identitetni sanoat jamiyati uchun zarur madaniy standartlashuvning natijasi sifatida ko'radi.

Tarixiy misol sifatida Gellner mamluklar hokimiyatini keltiradi. Ularning siyosiy qudrati o'zlarining madaniy begonaligi bilan uyg'unlikda mavjud bo'lgan. Aholi bilan madaniy jihatdan aralashgan sari ularning siyosiy hukmronligi zaiflashgan. Bu holatdan kelib chiqib, u zamonaviy davlatlarda hukmdor va xalq o'rtasida madaniy uyg'unlik bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Nega uzoq vaqt davomida barqaror bo'lib kelgan an'anaviy ijtimoiy-siyosiy tuzumlar tubdan o'zgarib ketdi, degan savolga Ernest Gellner va Elie Kedourie o'zlarining nazariy qarashlari

orqali javob berishga harakat qiladilar. Elie Kedouriening ta'kidlashicha, Yevropada yuz bergan modernizatsion jarayonlar va ularga hamroh bo'lgan inqilobiy o'zgarishlar jahon miqyosida chuqur ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, bu holat Osiyo va Afrika mintaqalarida an'anaviy jamiyatlar izdan chiqishi, avval o'z-o'ziga yetadigan va nisbatan barqaror bo'lgan iqtisodiy tizimlarning yemirilishi hamda ijtimoiy beqarorlikning kuchayishi bilan namoyon bo'lgan.

Kedourie fikricha, Yevropa bosqinlari va u bilan bog'liq modernizatsiya jarayoni mustamlaka hududlaridagi qadimiy siyosiy, ijtimoiy va madaniy tuzumlarni izdan chiqardi. Bu esa mahalliy aholi orasida o'zligini anglash, madaniy mustaqillikka erishish, milliy birlikni shakllantirish va nihoyat, suveren davlatchilikni barpo etishga intilish kabi kayfiyatlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Natijada milliy mustaqillik g'oyalari bilan yo'g'rilgan kuchli siyosiy harakatlar, jumladan, millatchilik (natsionalizm) mafkurasi shakllanib, keng tarqaldi.

Shu tarzda, Gellner milliyatchilikni ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarga javoban shakllangan sun'iy konstruktsiya sifatida baholaydi. Milliy birlik bu yerda tabiiy jarayon emas, balki modernizatsiya bilan uyg'unlashgan mafkuraviy vositadir.

Erik Hobsbawm ham milliyatchilikni sun'iy ijtimoiy konstruktsiya sifatida talqin qiladi. U millatni zamonaviy milliy davlat bilan bog'liq ijtimoiy birlik deb hisoblaydi. Hobsbawmning yondashuvi marksistik ildizlarga ega bo'lib, u milliyatchilikni siyosiy elitalar tomonidan yaratilgan mafkura sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, millatlarning shakllanishi uchun ommaviy ta'lim, savodxonlik va axborot vositalari zarur bo'lgan.

"Fransuz inqilobi" tarixda birinchi marta milliy suverenitet g'oyasini ilgari surib, davlat hokimiyatining manbai sifatida millatni tan oldi. Millat vakillari tomonidan tuzilgan parlamentlar va konstitutsiyalar ushbu g'oyaning amaliy ifodasidir. Hobsbawm bu jarayonni "yuqoridan pastga" (top-down) yondashuv deb ataydi. Elitalar milliy mafkurani targ'ib qiladi, biroq uning hayotiyligi uchun xalq ommasi tomonidan qabul qilinishi ham zarurdir.

Hobsbawm til va din kabi atributlarni millatning majburiy belgisi sifatida qabul qilmaydi. U hududiy birlikni asosiy omil deb biladi. Masalan, bir xil tilda so'zlashuvchi guruhlar turli millatlarga mansub bo'lishi mumkin, yoki bir millat ichida turli tillarda so'zlashuvchi jamoalar mavjud bo'lishi mumkin.

Shu bois, Hobsbawm milliyatchilikni siyosiy va texnologik o'zgarishlar natijasida shakllangan, tarixiy ildizlardan ko'ra ko'proq zamonaviy ehtiyojlarga javob beruvchi ijtimoiy-siyosiy hodisa deb baholaydi.

Anthony D. Smith milliyatchilikka nisbatan yanada kompleks yondashuvni taklif etadi. U millatni faqat modernizatsiya mahsuli emas, balki tarixiy va madaniy

uzluksizlik asosida shakllangan ijtimoiy birlik deb hisoblaydi. Smith “Nationalism and Modernism” (1998) asarida millatchilik nazariyalarini bir nechta yondashuvlar orqali tahlil qiladi: modernizm, primordializm, perennalizm, etno-simvolizm va postmodernizm.

Modernistlarga qarshi chiqqan holda, Smith millatlarning shakllanishida qadimiy etnik guruhlar (ethnies) va ularning tarixiy tajribasini muhim deb hisoblaydi. Uningcha, zamonaviy millatlar ko‘pincha tarixiy mifologiya, ramzlar, urf-odatlar va madaniy xotirani o‘zida mujassam etgan. Bu yondashuv “etno-simvolizm” deb nomlanadi.

Etno-simvolizmga ko‘ra, millatni shakllantiruvchi asosiy omillar — umumiy tarixiy xotira, hududiy aloqadorlik, madaniy ramzlar va miflardir. Smith ushbu yondashuvda tarixiy uzluksizlikni markaziy o‘ringa qo‘yadi. Uningcha, milliy identitet butunlay yangi g‘oya emas, balki mavjud madaniy qatlamlarning siyosiy shakllanishidir.

Shuningdek, Smith primordializm va perennalizm yondashuvlariga ham murojaat qiladi. Primordializm milliy identitetlarni tabiiy va tug‘ma deb qaraydi. Perennalizm esa millatlarning uzoq tarixiy davr mobaynida mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi. Smith bu yondashuvlarni to‘liq qabul qilmasa-da, ularning milliy o‘zlikni tushinishda ahamiyatli ekanini ta’kidlaydi.

Smith postmodernistik yondashuvni ham inkor etmaydi, biroq uni haddan tashqari konstruktivistik deb tanqid qiladi. Uningcha, millat faqat ijtimoiy konstruksiya emas, balki real tarixiy jarayonlar va madaniy asoslarga tayanadi.

Ushbu uch olimning milliyatchilik haqidagi yondashuvlari o‘zaro farqlidir. Gellner va Hobsbawm milliyatchilikni zamonaviy sanoat jamiyatining ehtiyojlariga mos ravishda shakllangan siyosiy konstruksiya deb baholaydi. Garchi ularning qarashlari umumiy asosga ega bo‘lsa-da, Hobsbawm elitalarning roliga va xalq ommasining qabul qilish jarayoniga alohida e’tibor qaratadi.

Smith esa milliyatchilikni faqat zamonaviy ehtiyojlar bilan izohlashni cheklangan yondashuv deb hisoblaydi. U millatni tarixiy-madaniy ildizlarga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy birlik deb tushunadi. Smithning qarashlari millatlarning qadimiy etnik asoslar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi va bu bilan Gellner hamda Hobsbawmning yondashuvlariga nisbatan muqobil nazariy asos yaratadi.

Ularning nazariyalarini bir-biri bilan qarama-qarshi qo‘yish emas, balki to‘ldiruvchi sifatida ko‘rish mumkin. Milliyatchilik fenomeni nafaqat zamonaviy siyosiy ehtiyojlar, balki tarixiy tajriba va madaniy omillar ta’sirida ham shakllangan hodisadir.

XULOSA

Milliyatchilik — bu siyosiy, ijtimoiy va madaniy qatlamlarga ega boʻlgan murakkab mafkuraviy hodisa boʻlib, uning kelib chiqishi, shakllanishi va mazmuni zamonaviy ijtimoiy fanlarda turli nazariy yoʻnalishlar orqali izohlanadi. Mazkur nazariy yondashuvlar oʻrtasidagi farqlar milliyatchilikning koʻp qirrali mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ernest Gellner milliyatchilikni sanoatlashgan zamonaviy jamiyatning strukturaviy ehtiyojidan kelib chiqqan ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiladi. U millatni oldindan mavjud boʻlgan tabiiy birlik emas, balki zamonaviylik sharoitida siyosiy va iqtisodiy funksiyalarni samarali bajarishga xizmat qiluvchi madaniy jihatdan bir hil sotsial konstruksiya deb tushuntiradi. Gellner nazariyasida yagona til, taʼlim va madaniyat sanoat jamiyatining zaruriy elementi sifatida milliy birdamlikni shakllantiradi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Erik Hobsbawm marksistik tarixiy materializm asosida milliyatchilikni siyosiy elitalar tomonidan ommani safarbar qilish maqsadida yuqoridan pastga yoʻnaltirilgan mafkuraviy loyiha deb baholaydi. U milliy identitet va tarixiy anʼanalarni aksariyat hollarda «ixtiro qilingan anʼanalardan» sifatida koʻradi va bu orqali milliyatchilikni hokimiyatga intilgan guruhlarining siyosiy strategiyasi sifatida tushuntiradi.

Anthony D. Smith esa bu ikki modernistik pozitsiyaga nisbatan etnosimvolik yondashuvni ilgari suradi. U millatlarning shakllanishini tarixiy ildizlar, madaniy meros va etnik uzluksizlikka asoslab tushuntiradi. Smith nazarida milliy identitet vaqtinchalik siyosiy loyiha emas, balki uzoq tarixiy jarayonlarning, qadriyatlar tizimi va ramzlarning mantiqiy natijasidir. Uningcha, zamonaviy millatlarning shakllanishida ilgari mavjud boʻlgan etnik birliklar muhim rol oʻynagan.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, milliyatchilik — bu nafaqat zamonaviy siyosiy gʻoya, balki u tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillar oʻzaro taʼsirining natijasi sifatida vujudga kelgan murakkab hodisadir. Gellnerning strukturaviy-modernistik yondashuvi, Hobsbawmning siyosiy-konstruktivistik talqini va Smithning tarixiy-etnik asosga urgʻu beruvchi modeli birgalikda milliyatchilikni chuqur va holistik tarzda anglashga zamin yaratadi. Bu yondashuvlarning integratsiyasi milliy identitet va davlat tuzilmalari masalasini tahlil qilishda nazariy va empirik jihatdan muhim konseptual asos boʻlib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Gellner, E. (1983). *Nations and Nationalism*. Oxford: Blackwell.

2. Hobsbawm, E. J. (1990). *Nations and Nationalism since 1780: Programme, Myth, Reality*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Smith, A. D. (1991). *National Identity*. Reno: University of Nevada Press.
4. Anderson, B. (2006). *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. London: Verso.
5. Smith, A. D. (1986). *The Ethnic Origins of Nations*. Oxford: Blackwell.
6. Breuilly, J. (1993). *Nationalism and the State* (2nd ed.). Chicago: University of Chicago Press.
7. Hroch, M. (1985). *Social Preconditions of National Revival in Europe: A Comparative Analysis of the Social Composition of Patriotic Groups among the Smaller European Nations*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Özkırmı, U. (2017). *Theories of Nationalism: A Critical Introduction* (3rd ed.). London: Palgrave Macmillan.
9. Calhoun, C. (1997). *Nationalism*. Minneapolis: University of Minnesota Press.
10. Kedourie, E. (1993). *Nationalism* (4th ed.). Oxford: Blackwell.